



**Shodixonov Sh.A. – TDIU magistranti**

## **Mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar va yig'implarning o'rnini va ahamiyati**

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash, hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan samarali soliq-budjet siyosatidan foydalangan holda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, makroiqtisodiy barqarorlik va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi"da har bir tuman budjetining kamida 5 foizini «Fuqarolar budjeti» dasturi doirasida aholining takliflari asosida eng dolzarb muammolarni yechishga sarflashni tashkil qilish asosiy milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashga qaratilgan ustuvor yo'nalishlarning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan<sup>2</sup>. Shu nuqtai nazaridan tuman budjetlarining daromadlarini yanada oshirish va mustahkamlash dolzib masala hisoblanadi.

Hududlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash nuqtai nazaridan hududlarning moliyaviy bazasini mustahkamlash, mahalliy budjetlarning daromad qismini kengaytirish bo'yicha hududlarning zaxira va imkoniyatlarini ishga tushirish, bu boradagi ishlar ustuvor vazifalardan biri.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek "Mahalla o'zining muammosini mustaqil hal etishi uchun "Mahalla budjeti" tizimi joriy etiladi. Buning uchun yangi yilda 1 yanvardan boshlab mol-mulk va yer soliqlarining bir qismi mahallaning o'zida qoladi"<sup>3</sup>. Bu hududlarda mahallalarning moliyaviy mustaqilligini oshirishga xizmat qiladi.

Mahalliy budjetlar darajasida mahalliy budjetlarning daromad bazasini ularni soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning alohida turlari bilan birlashtirish orqali tubdan mustahkamlash, viloyatlar, shaharlar va tumanlar budjetlarini subsidiyalardan chiqarib tashlash hamda bosqichma-bosqich amalga oshirish soliq-budjet siyosatining ustuvor vazifalari, ularning daromadlari yuqori bo'lgan budjetlarning taqsimlanishiga bog'liqligini kamaytirish, bundan kelib chiqib, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalarini hal yetish yer resurslarini ko'paytirish va mas'uliyatini tizimli asosda qo'shimcha zahiralarni aniqlash sifatida belgilangan va mahalliy budjet daromadlarini oshirish hisoblanadi. Mahalliy budjetlar daromadlarini oshirish, mahalliy budjetlar xarajatlaridan samarali foydalanishga yerishish, hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlash, mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy mustaqilligi va mas'uliyatini yanada oshirish chora-tadbirlarini amalga oshirishda ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb yetadi.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi". 21-maqсад.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi. 20 dekabr 2022 yil. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>



Google  
Scholar



O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 52-moddasiga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi budgetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budgetlarining daromadlari:

- 1) belgilangan normativlarga muvofiq:  
foyda solig'i;  
jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;  
aksiz solig'i;  
yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq (bundan qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq mustasno).
- 2) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 3) mol-mulk solig'i;
- 4) yer solig'i;
- 5) qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- 6) aylanmadan olinadigan soliq;
- 7) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;
- 8) avtotransport vositalarini sotib olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im;
- 9) boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi. Boshqa daromadlarga qonunchilikka muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi budgetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budgetlariga yo'naltiriladigan davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, belgilangan normativlar bo'yicha davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga berishdan va sotishdan olingan daromadlar, davlat bojlari, yig'img'lar, tovon pullari va jarima sanksiyalari, egasiz mol-mulkni, meros huquqi bo'yicha davlat ixtiyoriga o'tgan mol-mulkni, huquq bo'yicha davlat daromadiga o'tkazilishi lozim bo'lgan xazinalarni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo'yicha dividendlar (daromadlar) va qonunchilikka muvofiq boshqa daromadlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasining respublika budgetidan ajratiladigan budgetlararo transfertlar Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budgetining, viloyatlar viloyat budgetlarining va Toshkent shahri shahar budgetining daromadlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining respublika budgetiga tushadigan ayrim soliqlar va boshqa daromadlar Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budgetiga, viloyatlarning viloyat budgetlariga, Toshkent shahrining shahar budgetiga qonunchilikda belgilangan miqdorlarda va tartibda taqsimlanishi mumkin.

Soliqlar va boshqa daromadlar belgilangan normativlarga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budgeti, viloyatlarning viloyat budgetlari, Toshkent shahrining shahar budgeti hamda tumanlar va shaharlar budgetlari o'rtasida qayta taqsimlanishi mumkin.



### Kitob tumani mahalliy budjeti daromadlari tarkibi to'g'risida ma'lumot, foizda

Daromadlar nomi	2021 yil		2022 yil		2023 yil	
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	54,4	36,7	37,7	33,0	46,7	28,8
Yakka tadbirkorlar daromadidan olinadigan kat'iy belgilangan soliq	2,3	1,8	1,4	1,3	1,1	1,0
Yagona soliq to'lovidan Davlat budjetiga ajratmalar	8,7	7,9	9,1	6,8	6,2	5,4
Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i	7,1	11,0	13,1	8,2	7,9	8,0
Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i	7,5	12,7	12,0	12,3	7,6	14,0
Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i	2,5	2,7	3,4	6,9	7,9	8,7
Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	7,0	5,5	4,9	4,0	4,6	4,1
Tovarlar va xizmatlarga soliklar	2,5	3,4	4,1	3,4	5,1	2,6
Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar	3,3	5,8	8,4	9,7	9,3	12,0
Tovar ishlatishga va ularni ishlatishga ruxsat yoki faoliyatni amalga oshirish uchun soliq	0,3	1,0	0,7	0,7	9,3	12,0
Boshqa daromadlar	4,2	3,7	4,6	3,9	2,9	4,2
Jami daromadlar	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

1-jadvalda ko'rinib turganidek, Kitob tumani mahalliy budjeti daromadlari tarkibida Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i asosiy salmog'ini tashkil etmoqda. Ya'ni bu ko'rsatkich 2021 yilda rejada 56,4 foizni amalda esa 36,7 foizni, 2023 yilda esa rejada 45,7 foizni amalda esa 28,8 foizni tashkil etmoqda. Tuman mahalliy budjetida daromadlari takribida yakka tadbirkorlar daromadidan olinadigan kat'iy belgilangan soliq tushumlari ulushi 2,3 foizdan 1 foizgacha kamaygan. So'ngi yillarda Kitob tumani budjeti daromadlarida jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i, yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i, yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar bo'yicha tushumlar ulushi oshganligini ko'rishimiz mumkin.

### 2-jadval

### Kitob tumani mahalliy budjeti daromadlari tarkibi to'g'risida ma'lumot, mln so'm

Daromadlar nomi	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2021 yilga nisbatan %da
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligi	37367,1	45184,0	51662,2	138,3
Yakka tadbirkorlar daromadidan olinadigan kat'iy belgilangan solik	1799,8	1747,6	1831,7	101,8



Yagona solik tulovidan Davlat budjetiga ajratmalar	8086,4	9324,0	9737,0	120,4
Yuridik shaxslardan undiriladigan yer soligi	11155,1	11199,3	14253,8	127,8
Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer soligi	12911,1	16798,0	25071,7	194,2
Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk soligi	2761,1	9391,4	15615,7	565,6
Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solik	5601,8	5414,2	7321,9	130,7
Tovarlar va xizmatlarga soliklar	3457,9	4631,5	4738,1	137,0
Yer ka'ridan foydalanuvchilar uchun soliklar va maxsus tulovlar	5912,7	13201,4	21434,3	362,5
Tovar ishlatishga va ularni ishlatishga ruxsat yoki faoliyatni amalga oshirish uchun solik	1001,0	921,6	21434,3	2141,2
Boshka daromadlar	3806,5	5350,1	7515,7	197,4
Jami daromadlar	101769,0	136739,8	179158,7	176,0

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tuman mahalliy budjeti daromadi 2023 yilda 2021 yilga nisbatan lari tarkibida 176 foizga o'sgan bo'lsa, daromadlari tarkibida Tovar ishlatishga va ularni ishlatishga ruxsat yoki faoliyatni amalga oshirish uchun solik 2141,2 foizga, yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk soligi 565,6 foizga, yer ka'ridan foydalanuvchilar uchun soliklar va maxsus tulovlar 362,5 foizga, Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer soligi bo'yicha tushumlar 194,2 foizga oshgan. Bundan ko'rinib turibdiki, mahalliy budjet daromadlarida mahalliy soliqlar va yig'imlar bo'yicha tushumlarning yildan yilga oshayotganligini ko'ramiz va bu o'z navbatida mahalliy budjetlarning moliyaviy mustahkamlanayotganligini ko'rsatadi.

Umuman olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosa va takliflarni larni shakllantirish mumkin:

- So'ngi yillarda hududlarda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va davlat boshqaruvida olib borilayotgan islohotlar o'z samaralarini bermoqda va mahalliy hokimiyat organlariga tegishli mahalliy budjetlar daromadlarida mahalliy soliqlar va yig'imlar bo'yicha tushumlar oshib bormoqda. Bu o'z navbatida mahalliy hokimiyat organlarining moliyaviy mustaqilligini va moliyaviy slohiyatini yanada oshiradi;
- Mahalliy soliqlar va yig'imlarning tushumini yanada oshirish uchun joylarda jamoatchilik nazoratlarini va budjet nazoratida aholini ishtirokini yanada oshirish zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. O'zbekiston Respublikasining 2013 yil 26 dekabrda O'RQ-360-son qonuni bilan tasdiqlangan.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2024 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi 2023 yil 25 dekabrda O'RQ-886-sonli Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvarda PF-60-son



Google  
Scholar



Farmoni bilan tasdiqlangan “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi”.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.06.2017 yildagi “Mahalliy davlat hokimiyati organlarining budget vakolatlarini kengaytirish va mahalliy budget daromadlarini shakllantirishdagi mas’uliyatini oshirish to‘g‘risida”gi PQ-3042-sonli qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi. 20 dekabr 2022 yil. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>

6. Nurmuxamedova B.I. Davlat budjeti. O‘quv qo‘llanma. – T.: “ IQTISOD-MOLIYA”, 2018. – 576 b.

7. Komolov O.S., Gofurov D.B., Bfuyetdinov M.J. Davlat budjeti. O‘quv qo‘llanma –T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 –200 b.

8. <https://openbudget.uz>-O‘zbekiston Respublikasi “Ochiq budget” portali.

9. Kitob tumani hokimiyati hisobot materiallari

